

## O'RTA OSIYONING IBTIDOIY JAMOA DAVRIDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI

**Bibirajab Yuldasheva**

*Buxoro davlat universiteti dotsenti*

**Saodat Muxtorova**

*Buxoro davlat universiteti talabasi*

---

### ARTICLE INFO.

---

**Kalit so'zlar:** O'rta Osiyo, ibridoiy jamoa davri, tosh davri, paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza, temir davri, buyuk muzlik davri, ishlab chiqaruvchi xo'jalik, harbiy demokratiya.

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'rta Osiyoning ibtidoiy jamoa davridagi tarixiy geografiyasi hamda tosh davriga xos bo'lgan yodgorliklar, ulardan topilgan moddiy va yozma manbalar haqida so'z boradi. Kishilik jamiyatining tarkib topib rivojlanishi o'ziga xos bosqichlarni qamrab oladi. Har bir jarayon, har bir bosqichda muhim voqeя va hodisalar ro'y bergan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2023 LWAB.

---

### KIRISH

Insoniyat tarixida ibtidoiy jamoa tuzumi, yer kurrasida odamzod paydo bo'la boshlagan vaqtidan boshlab ibtidoiy gala, urug', urug'chilik tuzumining yemirilishi, mulkiy tengsizlik, tabaqalar va davlatning vujudga kelishigacha bo'lgan katta tarixiy davrni o'z ichiga qamrab oladi. Ibtidoiy jamoa tuzumi o'zidan keyingi barcha davrlarga nisbatan mehnat quollarining soddaligi, ishlab chiqarish kuchlarining nihoyat darajada past bo'lishi bilan belgilanadi. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida odamlar tosh, yog'och va suyak va boshqa buyumlardan yasalgan juda sodda quollarga ega edilar. Ular yerda mavjud bo'lgan narsalarni terib oziqlanishgan, ovchilik va termachilik bilan tirikchilik qilgan. Tirikchilik hayot-mamot uchun bo'lgan kurash xo'jalikni uzlusiz ta'minlay oladigan doimiy va birlashgan ishlab chiqarish uyushmasini zarur ekanligini taqozo etdi va vujudga keltirdi.

Eng qadimgi davr tarixiy jihatdan 2 ta yirik davr: "ibtidoiy to'da" va "urug'chilik jamoasi davri" ga bo'linadi. O'z navbatida urug'chilik jamoasi matriarxat (ona urug'i) va patriarxat (ota urug'i) ga bo'linadi. Arxeologiyada eng qadimgi davr mehnat quollarining nimadan yasalganiga qarab davrlarga ajratiladi. Eng qadimgi davr arxeologik jihatdan paleolit (qadimgi tosh davri), mezolit (o'rta tosh davri), neolit (yangi tosh davri), eneolit (mis - tosh davri), bronza va ilk temir davrlariga bo'linadi. O'rta Osiyo hududi bo'yicha ular quyidagicha xronologik tartibda belgilanadi:

Paleolit davri 3 bosqichga bo'linadi: 1) Ilk paleolit (mil. avv. 1 mln-100 ming yillik). 2) O'rta paleolit (mil. avv. 100 – 40 ming yillik) 3) So'nggi paleolit (mil. avv. 40 -12 ming yillik) larni o'z ichiga oladi.

Mezolit davri (mil. avv 12 -7 ming yillik), neolit davri (mil. avv 6 – 4 ming yillik), eneolit davri (mil. avv 4-3 ming yillik), bronza davri (mil. avv 3 – 2 ming yillik) va ilk temir davri (1 – ming yillik) ni o'z ichiga oladi [1].

O'rta Osiyoning ibtidoiy jamoa davri tarixiy geografiyasi asosan qadimgi manzilgohlarda olib borilgan

arxeologik tekshiruvlarda aniqlangan. Ilk paleolit davri manzilgohlari Selung'ur g'ori va Ko'lbuluoq makonidan topib o'rganilgan. Farg'ona vodiysining So'x tumanida joylashgan Selung'ur g'oridan tosh qurollar va odamnikiga o'xshash suyaklar topilgan. Tadqiqotchilarining fikricha, Selung'ur topilmalarining yoshi 1 million yildan ziyodroqdir. Ko'lbuluoq makoni hozirgi Toshkent viloyatining Ohangaron tumani hududida bo'lib, Chotqol tog'ining janubiy yonbag'rida, Qizilolmasoyining chap sohilidagi Ko'lbuluoq degan manzilda joylashgan [2]. Ko'lbuluoq makoni fanga 1963-yildan beri ma'lum bo'lib, o'sha yildan beri u yerda muttasil qazish ishlari olib borilmoqda. Ko'lbuluoq ochiq tarzdagi ko'p qatlamlili makon bo'lib, undan 41 ta qatlama ochilgan, uning yuqori qatlamlari so'nggi tosh va muste davrlari bilan belgilanadi. Uning quyisi qatlamlaridan esa ashel davriga mansub juda ko'p qo'pol tosh qurollar, xususan chaqmoqtosh va slanesli chaqmoqtoshdan yasalgan qurollar topilgan [3].

## ASOSIY QISM

Arxeologik davrlashtirishni yer tarixining geologik davrlari bilan solishtirgan holda, pleystotsen – muzlik davri arafasi va muzlik davri, golotsen-muzlik chekinishidan so'ng davrlar ajratilib, ular Qadimgi Sharqda mil. avv IV ming yillikka qadar bo'lган davr ibridoij jamiyat tarixiga to'g'ri keladi. XX asrda L. G. Morgan tomonidan davrlashtirish tizimi tahrir qilingan. Ibtidoiy jamoa tarixining ilk bosqichi "ibtidoiy to'da", ikkinchi bosqichi – "ibtidoiy urug' jamoasi" va so'nggi bosqichi - "harbiy demokratiya" davri deb izohlanadi [4]. Ibtidoiy jamiyat odamlarining yashash tarzi, jismoniy mehnat va aqliy tuzilishi, ular tomonidan yasalgan mehnat qurollarining turi va materialiga ko'ra bir qancha davrlarga bo'linadi. Biologik va mehnat jarayonida arxantrop (eng qadimgi odam) lar maymunlar dunyosidan juda uzoqlashib ketdilar. Bu mehnat qurollari yasash jarayonida boshning to'g'rulanishi, qo'lning mehnat faoliyati uchun bo'shashi, uning endi alohida vazifa bajarishi, ovqatning o'zgarishi, go'shtlik ovqat iste'mol qilinishi va boshqa tabiiy hamda ijtimoiy omillar maymunlarning tobora odamga yaqinlashishiga olib kelgan. Buyuk muzlash arafasida odamlar olovning foydali xususiyatlarini yaxshi o'rganib olganlar. Fil, karkidon, bug'u, zubr kabi yirik hayvonlarni ovlaganlar. Ashel davridayoq ibridoiy ovchilar bir joyda uzoq yashab, o'troqlikka o'ta boshlaganlar. Yangi topilmalar kishilikning ilk bosqichidagi xo'jalik hayoti haqidagi avvalgi tasavvurlarimizni o'zgartirishga olib keldi. Umuman aytganda, sodda mashg'ulotlardan biri bo'lган ovchilik va termachilik tirikchilikning asosiy manbai hisoblangan [3].

O'rta Osiyoda inson madaniyatining eng qadimgi manbalari ilk paleolitning ashel davriga mansubdir. Turli xil ma'lumotlarga ko'ra, bu hududlarda odamlar juda qadimgi zamonlarda kelib o'rnasha boshlaganlar. Eng qadimgi tosh qurollar - tosh sixchalar, qo'l cho'qmorlari yoki daryo toshlaridan ishlangan sodda va qo'pol qurollar (chopperlar) Vaxsh vodiysidagi Qizqal'a, Turkmanistonning Qoratangir va Yangaja, Qirg'izistonidagi Onarcha daryosi bo'yida, Farg'ona vodiysidagi Selung'ur makonida va Qayrag'och qishlog'i atrofida topib tekshirilgan [5]. Janubiy Qozog'istonning Qoratog' oldi, Bo'riqazigan va Tanirqazigan makonlari ham paleolit davriga oiddir.

Mezolit davrida odamlarning moddiy va ma'naviy madaniyatida katta o'zgarishlar yuz beradi. Harorat ko'tarilishi bilan toshqin suvlar va yangi ko'llar paydo bo'ladi. Bu jarayonlar fauna va flora dunyosining rivojlanishiga ta'sir qiladi. Daryo va ko'llarda baliqlar, yer yuzida yirik hayvonlar o'rnida tez chopar, chaqqon mayda hayvonlar ko'payta boshlaydi. Keng hududlarda turli xil o'simliklar va daraxtlar o'sadi. Ovchilikdan tashqari, baliqchilik rivojlanadi [6]. Mezolit davrining so'nggi bosqichlarida termachilikdan dehqonchilikka o'tish boshlangan.

O'rta Osiyoning ko'plab manzilgohlaridan mezolit davriga oid manzilgohlar topib o'rganilgan. Machay (Surxondaryo), Obishir (Farg'ona vodiysi), Markaziy Farg'ona, Bo'zsuv, Qo'shilish (Toshkent), Aydabol, Jayronquduq (Ustyurt), Oshxona, Chilchorchashma, Darai sho'r (Tojikiston) kabilari. Machay g'or makoni Hisor tizmasining biri – Ketmonchopti tog'ining yonbag'rida Machay daryosining o'ng sohilidagi Yuqori va O'rta Machay qishloqlari oralig'ida joylashgan. G'ordan topilgan mehnat qurollari va paleontologik materiallar mil. avv VII- VI ming yilliklarga mansub ekanligi aniqlangan [2].

Ibtidoiy jamiyat hech qachon turg'un bo'limgan, u o'z rivojlanishida turli bosqichlarni bosib o'tdi. Ibtidoiy tarixni davrlashtirishning bir necha turlarini ajratib ko'rsatishadi. Bular umumtarixiy, arxeologik, antropologik turlardir. Davlatchilikning paydo bo'lishi nazariyasi uchun arxeologiya fanining eng yangi ma'lumotlariga asoslanuvchi va ibtidoiy jamiyatning "neolit inqilobi"ga tomon rivojlanishining asosiy chegaralaridan biri sifatida ajralib turuvchi davrlashtirish alohida qimmatga egadir. Ushbu tushunchani tarix faniga ingliz arxeologi G. Chayld XX asr o'rtasida olib kirdi. U neolit davrida o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka, ya'ni ovchilik, baliqchilik va meva terishdan dehqonchilikka, chorvachilikka, metallurgiya va metallga ishlov berishga, keramika ishlab chiqarishga o'tish chog'ida insoniyat hayotining barcha sohalarida yuz bergen prinsipal jihatdan sifat to'ntarishini ta'riflab berdi [7].

O'rta Osiyo tarixida neolit davrining yuqori chegarasi mil. avv VII ming yilliklar, quyi chegarasi V-III ming yilliklar bilan belgilanadi. Bu davr O'rta Osiyoda Joytun, Kaltaminor va Hisor madaniyatlarining rivojlanishi bilan izohlanadi. Joytun makoni Turkmanistonning Ashxobod shahridan 25 km. shimoldagi tepalikda joylashgan bo'lib, bir necha uydan tashkil topgan. Har bir uyda 5-6 kishidan iborat oila yashagan. Joytun qishlog'ida 30 ga yaqin uy bo'lib, ularda 150- 180 kishi istiqomat qilgan, degan farazlar bor. Joytunliklar mil. avv VI- V ming yilliklarda yashab, asosan dehqonchilik, chorvachilik, qisman esa ovchilik bilan shug'ullanganlar. Ularda ona urug'i hukm surib, xo'jalikda ayollarning mavqeい baland bo'lgan [2].

Eneolit - neolit davridan keyingi davr hisoblanadi. Lotincha "eneus" – mis va yunoncha "litos" - tosh so'zlaridan olingan bo'lib, mis- tosh davri ma'nosini anglatadi. Eneolit mil. avv IV- III ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Ko'pgina hududlarda neolit davri jamoalari bilan bir vaqtida hukmron bo'lgan. Misning kashf etilishi va undan mehnat qurollari yasashning ixtiro qilinishi haqida fanda turli xil qarashlar mavjud.

Eneolit davri iqlim sharoiti hozirgi davrdan ancha farq qilgan. Yog'ingarchilik ko'p bo'lgan. Eneolitning ilk bosqichida aholi bir-biriga zich qilib qurilgan bir xonali uylardan iborat qishloqlarda istiqomat qilganlar [8]. O'rta Osiyoning shimoli - sharq dashtlarida va Orol dengizi sohillarida ovchilik, baliqchilik va ilk chorvachilik xo'jaliklari rivojlandi.

Buxoro vohasidagi Lavlakon, Beshbuloq makonlari va Zamombobo qabristonining eng pastki qatlamlari eneolit davriga oiddir. Bundan tashqari, Qoraqum cho'li, janubi - g'arbda Kopetdog' bilan chegaralangan Turkmaniston yerlari quruq va issiq iqlimli o'lkadir. Joytun madaniyati asosida Anov I-II va Nomozgoh I – III davrlariga mansub eneolit zamoni madaniyati keng tarqalgan [2].

O'rta Osiyo aholisi bronza davri bosqichiga o'tgach, mahalliy ishlab chiqarish taraqqiyotida yangi davr boshlanadi. Bu davr mil. avv III- ming yillikning o'rtalari- II ming yilliklarga mansub bo'lib, bronza mis bilan qo'rg'oshin va qalay qotishmasidir. U o'z xususiyatlari bilan misdan ustun turadi, ya'ni bronza misga qaraganda qattiq va pishikdir. O'rta Osiyo hududida ham ishlab chiqaruvchi kuchlar ancha taraqqiy topib, janubiy viloyatlarda ishlab chiqaruvchi xo'jaliklarning shakllari yangi asosda rivojlangan. Mil. avv II ming yillikda dehqonchilik va chorvachilik O'rta Osiyo aholisi xo'jaligining asosiy sohalari bo'lgan.

Bronzadan yasalgan qurollar iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtirgani tufayli, O'rta Osiyo dashtlarida yashagan qabilalar asosan chorvachilik bilan mashg'ul bo'lishgan. Qadimgi Sharqda shahar-davlatlar vujudga kelishi bilan hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralib chiqqan. Bronza davrida maxsus kulolchilik ishlab chiqarish vujudga kelgan. O'rta Osiyoning turli viloyatlarida (Kopetdog', Quyi Murg'ob vohasi, Janubiy O'zbekiston) mutaxassis kulollar paydo bo'la boshlagan. Bronza davrida sopol idishlar tayyorlash ham ancha takomillashdi [9].

Temir davri O'rta Osiyo hududida mil. avv I ming yillikka mansub hisoblanadi. O'rta Osiyoda ilk temir davrining boshlanishi va temir metallurgiyasi - metallchilik kashf etilishi haqida arxeologlar orasida ilmiy bahslar boradi. Olimlarning bir guruhi O'rta Osiyodagi ilk temir davri Eron va Hindistonga

zamondosh bo'lib, mil. avv X- VIII asrlarda boshlangan deb hisoblaydi. Ammo Anov va Dalvarzinda topilgan eng qadimgi temir o'roq va pichoq mil. avv VIII- VII asrlar bilan izohlanadi [10].

Mil. avv I ming yillik boshlariga oid yodgorliklardan Janubiy Turkmanistonda 46 ta qadimgi qishloq xarobasi ma'lum, bunday xarobalar Surxondaryoda 8 ta, Qashqadaryoda 7 ta topilgan. Quyi Murg'obda Yoztepa, Arvalitepa, Ko'hnatepa, Uchtepa, Surxondaryodagi Kuchuktepa, Bandixon I va Qiziltepa, Qashqadaryodagi Yerqo'rg'on, Chiroqchitepa va Sangirtepa ham shunday xarobalar sirasiga kiradi. Temir qurollarining keng tarqalishi mehnat unumdarligini oshirdi. Bu jarayon yanada rivoj topgan ishlab chiqarish usuliga o'tilishiga zamin hozirladi. Urug' jamoasi o'rnini hududiy qo'shnichilik jamoasi egallay boshladi [2].

Jahonning turli mintaqalarida ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi jarayonida ilk davlat uyushmalarining yuzaga kela boshlaganligini kuzatish mumkin. Dehqonchilikning va chorvachilikning paydo bo'lishi, hunarmandchilikning vujudga kelib taraqqiy etishi, mehnat qurollarining takomillashishi mehnat unumdarligining oshishiga olib keldi. Ayni paytda urug' jamoasi hududiy qo'shni jamoasiga aylana bordi. Aholi joylashgan yerlarni, dehqonchilik bilan mashg'ul vohalarni dushmanidan himoya qilish jamoaning ichki va tashqi munosabatlarini huquqiy rivojlantirish va nazorat qilish zarurati ilk davlat birlashmalari rivojlanishining boshlanishiga sabab bo'ldi. [11] O'rta Osiyo janubida ilk davlatchilik tuzumiga o'tish bosqichi bronza davriga to'g'ri keladi. Mintaqaning boshqa hududlarida ilk shaharlar va davlatlarning vujudga kelishi turli davrlar bilan belgilanadi. Ularning o'troq dehqonchilik viloyatlarida va dasht chorvadorlar madaniyati sharoitida shakllanishi turlicha omillarga asoslangan. [7]

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O'rta Osiyoning ibtidoiy jamoa davridagi tarixiy geografiyasi insoniyat taraqqiyotining, hozirgi davrning, xo'jalik ishlab chiqarishining, moddiy madaniyatning va dastlabki diniy e'tiqod shakllanishining asosiy o'zagi hisoblanadi. Tarixiy geografiyada nafaqat shu davrdagi voqealar, balki siyosiy, iqtisodiy, tabiiy jarayonlar hamda aholining turmush tarziga xos ma'lumotlar beriladi. O'rta Osiyoning eng qadimgi davri haqidagi bilimlar bizga bugungi kunda o'ziga xos moddiy va ma'nnaviy madaniyatimizni boyitishimizga yordam beradi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Egamberdiyeva N.A. Arxeologiya. – Toshkent. Fan va texnologiya, 2011. - B.176.
2. Saidboboyev Z. Tarixiy geografiya. – T.: Noshir, 2010. - B.112.
3. Kabirov J., Saydullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1990. - B.160.
4. Sagdullayev A.S. O'zbekiston tarixi. – T.: Donishmand ziyosi, 2021. -B.624.
5. Sagdullayev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – T.: Universitet, 2004. - B.112.
6. Sagdullayev A.S. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. – T.: O'qituvchi, 1996. - B. 12.
7. Rtvveladze E.V., Saidov A.X, Abdullayev E.V. Qadimgi O'zbekiston svilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. - T.: Adolat, 2001. - B.416.
8. Saidqulov T.S. O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar. – T.: O'qituvchi, 1993. - B.160.
9. Murtazayeva R.H. O'zbekiston tarixi. – T.: 2005. – B.536.
10. Xo'jayev A., Xo'jayev K. Qadimgi manbalarda xalqimiz o'tmishi. – T.: Ma'naviyat, 2001. - B. 40.
11. G'afforov Sh.S., Yaqubo娃 D.T. O'zbek davlatchiligi tarixi. O'quv qo'llanma. – Samarqand. 2021. - B.150.
12. Yuldasheva, B., & Feruza, R. (2023). IX–XIII ASR BOSHLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI

- IJTIMOIY-IQDISODIY VOQEALAR TARIXIY-GEOGRAFIYASI. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 356-359.
13. Mirjonovna, Y. B. (2021). Question About the Environment: Has the Historian Studied the Environmental Problem?. *Academica Globe*, 2(01), 10-17.
  14. Юлдошева, Б. М. (2022). ПАХТА МОНОПОЛИЯСИНИНГ БУХОРО ШАҲАР АТРОФ МУҲИТИГА ТАҶСИРИ (XX АСР ДАВОМИДА): Юлдошева Бибиражаб Миржоновна, Бухоро давлат университети таянч докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5), 46-51.
  15. Yuldosheva, B. M. (2022). SOMONIYLAR VA QORAXONIYLAR DAVRIDA BUXORO SHAHAR MADANIYATINING RIVOJLANISHI VA ATROF-MUHITGA MUNOSABAT. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1307-1313.
  16. Yuldosheva, B. M., & Islomova, S. J. qizi . (2023). IX-XIII Asrlarda Movarounnahrning Siyosiy-Tarixiy Geografiyasi. *Miasto Przyszlosci*, 41, 132–135.
  17. Юлдошева, Б. М. (2021). ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР: ХАЛҚАРО ҲАМЖАМИЯТ МУНОСАБАТИ ВА ТАРИХИЙ ЁНДАШУВ: Юлдошева Бибиражаб Миржоновна Бухоро давлат университети докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5).
  18. Явмутов, Д. Ш., & Рахманкулова, Н. О. (2021). РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMY JURNALI*, 1(2), 23-28.
  19. Sh, Y. D., & Rakhmanqulova, N. O. (2021). XUSUSIY SHERIKCHILIK VA TURIZM KLASTERI SOHASIDAGI TADBIRKORLIK RIVOJIDA DAVLATNING O'RNI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMY JURNALI*, 1(2), 73-76.